



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№2(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 234 sahifa,
2-fevral, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'quvchilarni intellektual rivojlantirishning psixologik omillari	22
<i>Ashurov Ramzidin Ramazonovich</i>	
Maktabgacha ta'limda bolaning kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda oila bilan ishlashning nazariy asoslari	27
<i>Jumanova Fatima Uralovna, Allaberganova Munisa Begimboy qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishning metodologik asoslari	32
<i>Jo'rayeva Nargiza Tairovna, Bekbergenova Yulduz Tanirbergen qizi</i>	
Faoliyatli yondashuv asosida maktabgacha 6-7 yoshli bolalarda nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	35
<i>Ziyodullayeva Mohirabonu Ikromjon qizi</i>	
Davlat ta'lim muassasalarida manfaatlar to'qnashuvini boshqarishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari ...	39
<i>Xaybatullaeva Sojidxon Ziyatullayevna</i>	
Umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya darslarining samaradorligini oshirishda integratsion yondashuv	42
<i>Kamoliddinov Mirzohid</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda interfaol metodlarning samaradorligi	45
<i>Kamoliddinova Dilnoza Axmadilaxanovna</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarda kreativ faollikni rivojlantirish mexanizmlari.....	48
<i>Nurjanova Rayxan Urazbaevna</i>	
Sinf biologiya fanini o'qitishda TIMSS topshiriqlardan foydalanish metodikasi va baholash mezonlari	52
<i>Xaitboyeva Dilorom Rustam qizi</i>	
Qandli diabet tashxisli bemorlarda shaxs tuzilmasining emotsional komponentlari	56
<i>Sadikova Umida Botirovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda pedagogik diagnostikani amalga oshirishning natijaviyligi	60
<i>Maxmutazimova Yulduz Raxmatovna, Qodirova Shaxnoza Saidazim qizi</i>	
Kasbiy imij shakllanishida psixologik jihatlarning tafovutlari	64
<i>Aminova Dilnoza Orifjonovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining jamoa bilan ishlash jarayonida yetakchilik kompetensiyalarini rivojlantirish	69
<i>Abdiyeva Fazilat Fayzulla qizi</i>	
Kichik maktab yoshidagi bolalar shaxsi rivojlanishida psixologik moslashuvning tipik xususiyatlari	73
<i>Mirsaitova Guzal Baxodirovna</i>	
Oliy ta'lim tizimida variativ modellashirish asosida talabalarning kreativ faoliyatini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarining qo'llanilishi	76
<i>Quvvatova Mohira Hikmatillayevna</i>	
Interfaol treninglar orqali o'qituvchilarning innovatsion fikrlashini rivojlantirish tajribasi	79
<i>Abdiyeva Shodiyona Yodgor qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyani shakllantirishning ahamiyati.....	82
<i>Zulayxo Nazarova, Qarshiboyeva Muxlisa Ismatullo qizi</i>	
Ijodiy qobiliyatni o'stirishda pedagogik mahorat va innovatsion metodlar	85
<i>Mutallibova Odinaxon Mirzaolimjon qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida olimpiadalarga tayyorlashda masalalar yechish texnologiyasi 11-sinf misolida	89
<i>Aslonov Xayrullo Shukrullo o'g'li</i>	



Bokschi qizlarni texnika taktikasini takomillashtirish.....	94
Axmedov Latifjon G'ayrat o'g'li	
Ixtisoslashtirilgan terminologiyaning asosiy lingvistik xususiyatlari	99
Axmedova Dilnoza Anvarovna	
Interfaol metodlar orqali zamonaviy darslarni tashkil etishning o'ziga xos tendensiyalari	102
Bakirov Otabek Bo'ranovich	
Boshqaruv psixologiyasi terminlarini tarjima qilishning metodologik muammolari	106
D. J. Norboyeva	
Raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta'lim muassasalari talabalari ruhiyatiga virtual muhitning salbiy ta'siri	110
Giyosov Ulug'bek Eshpulatovich, Turayeva Nigora Husniddin qizi	
Hamshiralik ishida raqamli texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi.....	113
Rasulova Gulmira, Amonova Dildora, Abdurahmonov Aziz, Hakimova X. X.	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kognitiv qobiliyatlarni shakllantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar	117
Jumayev Xushboq Soatmumin o'g'li	
Principles of Organising Autonomous Learning.....	121
Khazratova Zukhra Mamaraimovna	
Najot – ta'limda, najot-tarbiyada	124
Mo'minova Manzura Mamasodiqjonovna	
Educational Potential of Museum Pedagogy and Criteria for its Application in Developing Historical Thinking of Pre-Service History Teachers	127
Niyozov Javlonbek	
Landshaft dizayni vastasida bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining estetik va kreativ ko'nikmalarini rivojlantirish	131
Radjapova Zuxra Tirkashevna	
Abdulla Avloniy pedagogik merosida shaxs psixologiyasi masalalari.....	134
S. O. Mamarasulov, D. A. Egamberdiyeva	
TBL metodini qo'llash orqali o'quvchilarning madaniyati va ijtimoiy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish....	138
Sodikova Oyshakhon Muxammadsodik	
Pedagogik innovatsiyalarni boshqarishning nazariy-metodologik asoslari.....	142
Solihova Barno Sodik qizi	
Boshlang'ich ta'lim magistratura talabalarining ijodiy faolligini rivojlantirish shart-sharoitlari	146
Yarmatov Shermo'min Rahmatovich	
Формирование готовности родителей детей старшего дошкольного возраста к выполнению воспитательной функции в семье.....	149
Атаджанова Сохиба Талиповна	
Redjio pedagogik yondashuv asosida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish pedagogik muammo sifatida	152
Djamilova Nargiza Nuritdinovna, Otahonova Marjona	
Talabalarda algoritmik kompetentlikni rivojlantirishning sun'iy intellekt va Big Data Analytics asosida o'quv faoliyatini real vaqt rejimida kuzatuvchi va boshqaruvchi konseptual modelni takomillashtirish.....	155
Kayumova Nazokat Rashitovna	
Raqamli ta'lim muhitida chet tili o'qituvchilari va talabalar o'rtasidagi interaktsiyaning pedagogik samaradorligi va innovatsion mexanizmlari	163
Eshonqulova Umida Xolmirzayevna	
MTTlarda nutqni rivojlantirishga doir mashg'ulotlarda interfaol usullardan foydalanish texnologiyasi	168
To'laboyeva Iqbolaxon Olimjonovna	
Ta'lim jarayonidagi konfliktlar.....	173
Abulova Mohigul Komiljonzoda	
Talabalarining bolalarda ijtimoiy moslashuvni shakllantirishga kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish	176
Inomova Mahliyo Yusuf qizi	

Shaxs tuzilmasida ma'naviy intellekt: nazariy-metodologik tahlil va psixologik interpretatsiya	179
Mirxoliqova Charos Xabibullaevna	
18-20 yoshli belbog'li kurashchilarning musobaqa oldi jismoniy tayyorgarliklari	183
Muzafarov Muxammadali Maxsudovich	
Talabalarda mustaqil ta'lim topshiriqlaridan foydalanib kasbiy madaniyatini rivojlantirishga zamonaviy yondashuvlar (boshlang'ich ta'limda tarbiya fani misolida)	187
Yadgarova Surayyo	
Maktab o'quvchilariga pedagogik ta'sir ko'rsatishda o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish	190
Yo'ldoshova Shahlo Shukurullo qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ma'naviy-ma'rifiy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirishning nazariy tahlili	194
Yusupova Sanobar Odil qizi	
Типология научного текста: от жанровой классификации к дискурсивной модели	197
Бахтияр Катибжанович Саттаров	
Взаимодействие педагога и семьи в профилактике и преодолении стресса у детей дошкольного возраста	201
Г. С. Алиходжаева, Х. Рахимова	
Условия эффективности инклюзивного образования	206
Г. С. Алиходжаева, Л. О. Бекмуродова	
Педагогическая готовность к обучению в школе детей билингов	211
Г. С. Алиходжаева, Н. А. Ганиева	
Педагогические условия формирования эмоционального интеллекта у дошкольников	216
Джалилова Феруза Намазовна	
Milliy meros va musiqiy madaniyatning yosh avlod tarbiyasidagi o'rni	219
Zuhriddin Azizov	
Госпитальная школа как пространство поддержки и развития ребёнка (на примере госпитальной школы при детской клиники Синсиннати, США)	222
Муминов Р. Р., Хакимова Н. Х., Набиева Г. Г.	
Интерактивные формы работы в процессе профориентации детей дошкольного возраста	227
Н. Т. Жураева, С. М. Ахмеджанова	
Samarali hamkorlikdagi faoliyatga tayyorlashga oid yondashuvlar	231
Hojiyeva Zulfiya O'ktamovna	



IJODIY QOBILIYATNI O'STIRISHDA PEDAGOGIK MAHORAT VA INNOVATSION METODLAR

Mutallibova Odinaxon Mirzaolimjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti Pedagogika yo'nalishi
2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqola maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda pedagogik mahorat va innovatsion metodlarning ahamiyatini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada ijodiy qobiliyat tushunchasi, uning bolalarda namoyon bo'lishi va shakllanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, pedagogik mahorat orqali bolalarning ijodiy faolligini oshirishning samarali usullari, jumladan o'yin faoliyati, dramatik mashg'ulotlar, loyihaviy ishlar hamda raqamli vositalardan foydalanishning pedagogik asoslari yoritib beriladi. Tadqiqot natijalari ilmiy va amaliy jihatdan pedagoglarga maktabgacha ta'lim jarayonida ijodiy yondashuvni samarali qo'llashda metodik ko'mak beradi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, bolalarning ijodiy qobiliyati, pedagogik mahorat, innovatsion metodlar, ijodiy fikrlash, o'yin faoliyati, dramatik faoliyat, loyihaviy ishlar, eksperiment, tasavvur va fantaziya, bolalarning rivojlanishi, mustaqil fikrlash, pedagogik yondashuv, kreativlik, bolalarning qiziqishlari, ta'lim jarayoni, shaxsiy rivojlanish, ijodiy o'qitish metodlari, zamonaviy ta'lim texnologiyalari.

Abstract: This article is devoted to examining the importance of pedagogical skills and innovative methods in the development of creative abilities of preschool children. The study analyzes the concept of creative abilities, as well as their manifestation and formation in early childhood. It also explores effective ways to enhance children's creative activity through pedagogical mastery, highlighting the pedagogical foundations of using play-based activities, dramatic practices, project work, and digital tools. The findings provide both scientific and practical support for teachers in effectively applying a creative approach in the preschool education process.

Key words: preschool education, children's creative abilities, pedagogical skills, innovative methods, creative thinking, play-based activity, dramatic activity, project work, experiment, imagination and fantasy, child development, independent thinking, pedagogical approach, creativity, children's interests, educational process, personal development, creative teaching methods, modern educational technologies.

Аннотация: Данная статья посвящена изучению значения педагогического мастерства и инновационных методов в развитии творческих способностей детей дошкольного возраста. В статье анализируется понятие творческих способностей, особенности их проявления и формирования у детей. Рассматриваются эффективные способы повышения творческой активности детей посредством педагогического мастерства, а также педагогические основы использования игровой и драматической деятельности, проектной работы и цифровых средств обучения. В научно-практическом аспекте статья способствует применению педагогами творческого подхода в системе дошкольного образования.

Ключевые слова: дошкольное образование, творческие способности детей, педагогическое мастерство, инновационные методы, творческое мышление, игровая деятельность, драматическая деятельность, проектная работа, эксперимент, воображение и фантазия, развитие детей, самостоятельное мышление, педагогический подход, креативность, интересы детей, образовательный процесс, личностное развитие, творческие методы обучения, современные образовательные технологии.

KIRISH

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim muassasalari va pedagoglar uchun bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Jamiyat va texnologiyalar tez rivojlanayotgan bir paytda, bolalar o'z fikrini erkin ifoda eta olishi, mustaqil qaror qabul qilishi va muammolarni ijodiy yondashuv orqali hal qila olishi muhimdir. Shu nuqtai nazardan pedagogik mahorat hozirgi kunda faqat bilim berish qobiliyatini emas, balki bolalarni ijodiy faoliyatga jalb qilish, ularni qiziqitirish va motivatsiya berish kabi ko'nikmalarni ham o'z ichiga oladi.



Innovatsion metodlar esa maktabgacha ta'lim jarayonini yanada samarali qiladi. Masalan, o'yin, dramatik faoliyat, loyiha ishlari, eksperimentlar va raqamli texnologiyalar bolalarning ijodiy tafakkurini rivojlantiradi, ularni yangi g'oyalarni ishlab chiqishga undaydi va mustaqil fikrlashga rag'batlantiradi. Shu bilan birga, pedagogning mahorati va innovatsion yondashuvlarning uyg'un ishlashi bolalarning shaxsiy rivojlanishini tezlashtiradi va ularning kreativ salohiyatini oshiradi.

Hozirda pedagoglar zamonaviy ta'lim texnologiyalarini, interaktiv usullarni va ijodiy faoliyatni uyg'unlashtirib ishlash orqali bolalarning qiziqishi va faoliyatini maksimal darajada oshirish imkoniga ega bo'lmoqda. Shu sababli, pedagogik mahorat va innovatsion metodlarning ahamiyati nafaqat bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, balki ularni kelajakdagi murakkab vaziyatlarga moslashuvchan va mustaqil fikrlay oladigan shaxslar sifatida tarbiyalashda ham beqiyosdir.

Ijodiy qobiliyat – bu har bir bolaning shaxsiy rivojlanishi va dunyoqarashini shakllantirishda asosiy omillardan biridir. Bolalar ijodiy faoliyat orqali yangi narsalarni o'rganadi, muammolarni mustaqil hal qilishni o'rganadi va o'z fikrlash doirasini kengaytiradi. Ayniqsa maktabgacha yoshdagi bolalar, ularning tasavvuri va qiziqishlari juda yuqori bo'lgani sababli, ijodiy qobiliyatni rivojlantirish uchun eng qulay davr hisoblanadi. Shu bois, pedagoglar uchun bolalarning ijodiy salohiyatini to'liq ochish va uni rivojlantirish juda muhim vazifa hisoblanadi.

Pedagogik mahorat – bu pedagogning bilim va ko'nikmalarini amaliy tarzda qo'llay olish qobiliyati bo'lib, bolalarning ijtimoiy, emotsional va intellektual rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Pedagogning mahorati nafaqat dars jarayonini samarali tashkil etish, balki bolalarni ijodiy faoliyatga jalb qilish, ularni qiziqitirish va motivatsiya qilishda namoyon bo'ladi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar esa an'anaviy metodlarni innovatsion usullar bilan uyg'unlashtirishga imkon beradi. Masalan, o'yin, dramatik faoliyat, loyihaviy ishlarni va raqamli vositalardan foydalanish bolalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishga sezilarli hissa qo'shadi.

Shu bilan birga, ijodiy qobiliyatni rivojlantirish jarayoni faqat pedagogning bilimiga bog'liq emas; u pedagogik muhit, bolalar o'rtasidagi muloqot, ota-onalar bilan hamkorlik va pedagogning ijodiy yondashuvi bilan bevosita bog'liq. Pedagogning mahorati va innovatsion metodlarning uyg'un ishlatilishi natijasida bolalar o'zlarining tasavvurini erkin ifoda etish, yangi g'oyalarni ishlab chiqish va muammolarni original yo'llar bilan hal qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ushbu maqola maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatini shakllantirishda pedagogik mahorat va innovatsion metodlarning ahamiyatini chuqur tahlil qilishga qaratilgan. Maqolada ijodiy qobiliyat tushunchasi, uning shakllanishi, pedagogik yondashuv va zamonaviy innovatsion metodlarning samaradorligi ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, maqola amaliy tajribalar va ilmiy tadqiqotlar asosida pedagoglarga ijodiy faoliyatni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar berishga mo'ljallangan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Psixologik-pedagogik tadqiqotlarga ko'ra, 3–6 yosh oralig'i – bolalarda ijodiy salohiyatning eng faol namoyon bo'ladigan davri hisoblanadi (L.S. Vygotskiy, N.S. Leites, G.G'ofurova va boshqalar). Shu sababli, maktabgacha ta'lim tizimi bolaning ijodiy qobiliyatlarini erta aniqlash, rag'batlantirish va maqsadli rivojlantirish uchun eng qulay pedagogik muhitni yaratishi lozim.¹

"Ijodkorlik" va "Ijodiy qobiliyat" tushunchalari o'rtasidagi munosabat, shuningdek talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish borasida qator olimlar izlanish olib borgan. Qadimgi yunon olimlari Platon, Aristotel, Avgustin ijodiylik tushunchasini tadqiq etgan. Shuningdek, J.Bruno, B.Spinoza, I.Kant, S.Rubinshteyn, G.Uolles va boshqalarning asarlarida ham o'z aksini topgan.²

P.K.Engelmeyer "ijod nazariyasi", N.A.Berdzayev "erkinlik falsafasi" va "yaratilish" ma'nosi, A. Libiyer "ijod falsafasi" va boshqalar. D.B.Elkoninning ta'kidlashicha, ijod o'zaro bog'liq qobiliyatlarning bir butun tizimi elementlarni: tasavvur, assotsiativlik, fantaziya, xaelparastlikni o'zida mujassamlashtirgan qobiliyatdir. Shaxsiy faoliyatning eng yuqori shakli sifatida ijod uzoq tayergarlik, donolik, ijtimoiy intellektning yuqori darajada bo'lishini taqozo qiladi.³

E.P.Torrance ijodiylik mezonlarini aniqlagan, uning fikricha "birinchi mezon - nostandartlik ijodiy qobiliyat va originallik bilan o'xshash bo'lib, o'ziga xoslikka nisbatan kengroq tushunchadir. Ikkinchi mezon - anglashdir. Bunda talaba tomonidan muammo yechimining anglanganligi nazarda tutiladi"⁴

- 1 Research Focus International Scientific Journal, Uzbekistan "Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda maktabgacha ta'limning o'rni va xususiyatlari" Turdaliyeva Nurjahan Abdunosir qizi 238-241-p
- 2 academic research in modern science "talabalarning ijodiy qobiliyatlarini raqamli artpedagogik texnologiyalar vositasida rivojlantirishning ahamiyati" Axror-Murod Irodabegim 97-100-p
- 3 Academic Research in Modern Science "Talabalarning ijodiy qobiliyatlarini raqamli artpedagogik texnologiyalar vositasida rivojlantirishning ahamiyati" Axror-Murod Irodabegim 97-100-p
- 4 Гогоберидзе А.Г., Солнцевой О.В. Дошкольная педагогика с основами методик воспитания и обучения. Учебник для вузов. 2-е изд. СПб.: Питер, 2016.-464 с.



Maktabgacha ta'lim va bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha mavjud ilmiy manbalarni tahlil qilganda, olimlar va pedagoglar ijodiy qobiliyatning bolalarning shaxsiy rivojlanishidagi ahamiyatini bir ovozdan ta'kidlashadi. Masalan, V.A. Sukhomlinskiy va L.S. Vygotskiy⁵ asarlarida ijodiy faoliyatni maktabgacha yoshdagi bolalarda rivojlantirish pedagogik jarayonning markaziy elementi sifatida ko'rsatiladi. Ular ijodiy fikrlash, fantaziya va tasavvur bolalarning umumiy rivojlanishida muhim rol o'ynashini qayd etadilar.

So'nggi yillarda pedagogik mahorat va innovatsion metodlar masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim bo'yicha davlat standartlari va ilmiy maqolalarda pedagoglarning metodik yondashuvi va ijodiy faoliyatni rag'batlantirish usullari tahlil qilingan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, pedagogning mahorati nafaqat bilim berish jarayonida, balki bolalarning ijodiy qobiliyatini shakllantirish va rag'batlantirishda ham hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Innovatsion metodlar – o'yin, dramatik faoliyat, loyihaviy ishlanmalar, eksperiment va raqamli texnologiyalar – bolalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishda samarali vosita sifatida keng qo'llaniladi. Masalan, A.N. Leontyev va S.A. Zankovning⁶ tadqiqotlarida interaktiv va kreativ yondashuvlar bolalarda mustaqil fikrlash va ijodiy faoliyatni rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi qayd etilgan.

Shuningdek, zamonaviy ilmiy maqolalarda pedagogik mahorat va innovatsion metodlarning uyg'un ishlatilishi bolalarning individual qobiliyatini aniqlash, ularni motivatsiya qilish va shaxsiy rivojlanishini tezlashtirishdagi ahamiyati alohida ta'kidlangan. Shu bilan birga, maktabgacha ta'limda ijodiy qobiliyatni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan amaliy tajribalar pedagoglarga ijodiy yondashuvni samarali qo'llash imkonini beradi.

Natijada, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ijodiy qobiliyatni shakllantirishda pedagogik mahorat va innovatsion metodlar bir-birini to'ldiruvchi va birgalikda samaradorlikni oshiruvchi muhim elementlardir. Bu masala hozirgi kunda nafaqat ilmiy, balki amaliy nuqtai nazardan ham dolzarb bo'lib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish masalasi zamonaviy ta'lim tizimida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonni o'rganishda bir necha nazariy yondashuvlar asos sifatida xizmat qiladi. Jumladan, faoliyat yondashuvi (A.N. Leontyev) bolaning faoliyati uning shaxsiy rivojlanishi va ijodiy qobiliyatini shakllantirishda markaziy o'rin tutishini ta'kidlaydi. Shu nuqtai nazardan bolalarning ijodiy tafakkuri va tasavvurini amaliy faoliyat orqali rivojlantirish samarali usul hisoblanadi.

Sotsiokultural yondashuv (L.S. Vygotskiy) esa ijodiy qobiliyatning faqat individual rivojlanish bilan cheklanmasligini, balki bolaning ijtimoiy muhit, pedagog va boshqa bolalar bilan muloqoti orqali shakllanishini ta'kidlaydi. Shu sababli pedagogik mahorat nafaqat bilim berish qobiliyatini, balki bolalarni rag'batlantirish, ularning qiziqishini uyg'otish va motivatsiya qilishni ham o'z ichiga oladi. Rivojlantiruvchi ta'lim nazariyasi (S.A. Zankov) esa bolalarning bilim, ko'nikma va ijodiy qobiliyatini uyg'un rivojlantirishni asosiy tamoyil sifatida belgilaydi. Bu nazariy yondashuv pedagogning ijodiy yondashuvini va interaktiv metodlarni qo'llashini talab qiladi. Shu bilan birga, V.A. Sukhomlinskiyning pedagogik mahorat nazariyasi pedagogning kasbiy va shaxsiy ko'nikmalari bolalarning ijodiy faoliyatini samarali tashkil etishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Nazariy tahlil shuni ko'rsatadiki, ijodiy qobiliyatni shakllantirish bir nechta omillarga bog'liq bo'lib, ular orasida pedagogik mahorat, innovatsion metodlarning qo'llanilishi, bolalarning faoliyati va ijtimoiy-madaniy muhit alohida ahamiyatga ega. Pedagogik mahorat yuqori bo'lgan o'qituvchilar bolalarni ijodiy faoliyatga jalb qilishda, ularni yangi g'oyalarni ishlab chiqishga undashda muvaffaqiyatli bo'ladi. Shu bilan birga, o'yin, dramatik faoliyat, loyiha ishlari, eksperiment va raqamli texnologiyalar bolalarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi, ularni ijodiy yondashuv bilan muammolarni hal qilishga o'rgatadi.

Shu asosda adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, pedagogik mahorat va innovatsion metodlarning uyg'un ishlatilishi maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishning eng samarali vositasi hisoblanadi. Bu nafaqat bolalarning shaxsiy rivojlanishida, balki ularning kelajakda mustaqil fikrlay oladigan, kreativ va iqtidorli shaxslar sifatida tarbiyalanishida ham muhim ahamiyatga ega.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda pedagogik mahorat va innovatsion metodlarning dolzarb ahamiyati tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, pedagogik mahorat nafaqat bilim berish, balki bolalarning ijodiy faoliyatini samarali tashkil etish, ularni rag'batlantirish, qiziqish-

5 Vygotskiy L.S. (1978). *Mind in Society*. Harvard University Press. Sukhomlinskiy V.A. (1970). *Pedagogical Work*. Moscow.

6 Leontyev A.N. (1975). *Activity, Consciousness, and Personality*. Moscow. Zankov S.A. (1969). *Developmental Teaching Theory*. Moscow.



larini uyg'otish va motivatsiya berishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Pedagog o'z bilim va ko'nikmalarini amaliy tarzda qo'llash orqali bolalarda tasavvur va fantaziyani rivojlantirish, yangi g'oyalarni ishlab chiqishga undash va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Innovatsion metodlar esa maktabgacha ta'lim jarayonini yanada interaktiv va samarali qiladi. O'yin, dramatik faoliyat, loyiha ishlari, eksperiment va raqamli texnologiyalar bolalarning ijodiy tafakkurini rivojlantiradi, ularni turli vaziyatlarda mustaqil qarorlar qabul qilishga o'rgatadi. Shu bilan birga, innovatsion yondashuvlar bolalarning qiziqishini oshiradi, ularning motivatsiyasini kuchaytiradi va ta'lim jarayonini qiziqarli va faol qiladi.

Nazariy tahlil shuni ko'rsatadiki, ijodiy qobiliyatni shakllantirish jarayoni faqat pedagogning bilimiga bog'liq emas; u bolalarning qiziqishlari, motivatsiyasi, pedagogik muhit va ijtimoiy-madaniy muhit bilan chambarchas bog'liq. Shu sababli pedagogik mahorat va innovatsion metodlarning uyg'un ishlatilishi bolalarning shaxsiy rivojlanishini tezlashtiradi va ularni kreativ, mustaqil fikrlay oladigan shaxslar sifatida tarbiyalashga imkon beradi.

Hozirgi kunda zamonaviy ta'lim tizimi innovatsion yondashuvlarni keng joriy etishni talab qiladi, chunki texnologiyalar va jamiyatning rivojlanishi bolalarning ijodiy qobiliyatini shakllantirishni yangi darajaga olib chiqmoqda. Pedagoglar nafaqat o'qituvchi, balki ijodiy lider sifatida bolalarning o'z fikrini erkin ifoda etishini rag'batlantirishi, ularni yangi g'oyalarni kashf qilishga undashi lozim.

Shu asosda, maktabgacha ta'lim muassasalarida pedagogik mahorat va innovatsion metodlar birgalikda qo'llanilganda, bolalarning ijodiy qobiliyati va shaxsiy rivojlanishi maksimal darajada ta'minlanadi. Bu esa ularning kelajakda mustaqil fikrlay oladigan, ijodiy va kreativ shaxslar sifatida shakllanishiga asos yaratadi. Shu nuqtai nazardan, pedagogik mahoratni oshirish va innovatsion metodlarni amaliyotga tatbiq etish hozirgi kundagi maktabgacha ta'limning eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Turdaliyeva Nurjahan Abdunosir qizi Research Focus International Scientific Journal, Uzbekistan "Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda maktabgacha ta'limning o'rni va xususiyatlari" Turdaliyeva Nurjahan Abdunosir qizi 238-241-p
2. Axror-Murod Irodabegim Academic research in modern science "Talabalarning ijodiy qobiliyatlarini raqamli artpedagogik texnologiyalar vositasida rivojlantirishning ahamiyati" 97-100-p
3. Гогоберидзе А.Г., Солнцевой О.В. Дошкольная педагогика с основами методик воспитания и обучения. Учебник для вузов. 2-е изд. СПб.: Питер, 2016.-464 с.
4. Vygotskiy L.S. Mind in Society. Harvard University Press. Sukhomlinskiy V.A. 1970. Pedagogical Work. Moscow. 1978-yil.
5. Leontyev A.N. Activity, Consciousness, and Personality. Moscow. Zankov S.A. 1969. Developmental Teaching Theory. Moscow. 1975-y.
6. Sukhomlinskiy, V.A. Pedagogical Work. Moscow: Prosveshcheniye. 1970.y.
7. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi. Davlat ta'lim standartlari: Maktabgacha ta'lim. Tashkent. 2020.
8. Islomova, D., & Karimov, M. Innovatsion metodlar yordamida bolalarda ijodiy tafakkurini rivojlantirish. Tashkent Pedagogika Journal, 3(2), 45–53. 2019.
9. Rahmonova, N. Maktabgacha ta'limda pedagogik mahorat va kreativ yondashuvlar. Tashkent: Ilm-fan. 2021.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.